



UO'K 373.1

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14651418>

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA – KITOBXONLIK MADANIYATI

### В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ – КУЛЬТУРА ЧТЕНИЯ

#### IN PRIMARY EDUCATION – READING CULTURE

**Xoldarova Iroda Valijonovna**

*Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası professori*

*E-mail: irodaxoldarova70@gmail.com*

*ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-9905-7020>*

#### **Annotatsiya.**

*Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish metodikasi va kitob o'qish orqali shakllanadigan kompetensiyalar haqida tushunchalar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *so'z, mazmun, kitobxon, boshlang'ich, o'quvchi, ong, tasavvur, xotira, diqqat, aql-idrok, fikr, g'oya, dunyoqarash, tarbiya.*

#### **Аннотация.**

*В статье рассмотрены методика формирования культуры чтения у учащихся младших классов и компетенции, формируемые при чтении книг.*

**Ключевые слова:** *слово, содержание, читатель, новичок, читатель, разум, воображение, память, внимание, разведка, мысль, идея, перспектива, образование*

#### **Abstract.**

*The article provides insights into the methodology of formation of reading culture among elementary school students and the competencies formed by reading books.*

**Key words:** *word, content, reader, beginner, reader, mind, imagination, memory, attention, intelligence, thought, idea, outlook, education.*

#### **KIRISH**

Bugun mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sifati, aynisa, boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan muhim bir masala – bu yoshlarimizning odob-ahloqi,

yurish-turishi, bir soʻz bilan aytganda, dnyoqarashi bilan bogʻliq. Bugun zamon shiddat bilan oʻzgaryapti. Bu oʻzgarishlarni hammadan ham koʻproq his etadigan yoshlar. Mayli, yoshlar oʻz davrining talablari bilan uygʻun boʻlsin. Lekin ayni paytda oʻzligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulugʻ zotlarning avlodimiz, degan daʼvat ularning qalbida doimo aks-sado berib, oʻzligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Bugun kun tartibida Yangi Oʻzbekistonning kelajagi buyuk qudratli jamiyat qilish dolzarb masalalardan boʻlib turibdi. Shu nuqtayi nazardan jamiyatda yashayotgan barcha fuqarolarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash darkor. Buning uchun yoshlarni tarbiyalashda ular bilan individual psixologik suhbatlar olib borish hamda turli tashqi taʼsirlarga javob berish koʻnikmasini shakllantirish joiz. Dunyoni chuqurroq bilish, tobora koʻproq yangi jarayonlar, odamlar va undagi narsalar oʻrtasidagi munosabatlar hamda xususiyatlarni bilish ham, albatta, kitoblar orqali anglashiladi. Kitob oʻqigan har qanday insonning idroki, diqqati, tasavvur va xotiralari, xayol hamda tafakkurlari, irodaviy sifatleri izchil ravishda oʻzgarib boradi. Ayniqsa, boshlangʻich sinf oʻquvchilariga kitobxonlikni oʻrgatish – bu juda muhim va masʼuliyatli vazifa. Bu yoshda bolalar oʻzlarining oʻqish va yozish qobiliyatlarini rivojlantirishi, tilni yaxshi oʻzlashtirishi, bilim olishga boʻlgan qiziqishlarini shakllantirishi lozim.

Bugun bilimli, maʼnaviyatli, maʼrifatli yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni beqiyosdir. Mana shunday yuksak salohiyatli yoshlarni yaxshi tarbiyalashning eng asosiy omili bu – kitob. Kitob insoniyat tomonidan yaratilgan, buyuk kashfiyotdir.

Kitob insonni ulugʻlaydi, Vatanga muhabbat, insonparvarlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Inson yashayotgan hayotga minnatdorchilik tuygʻusi bilan qarash, boshqalarga mehribon va xushmuomala boʻlish, boshqalarga yaxshilik ulashish tuygʻularini shakllantiradi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda, bugungi kunda yoshlar va aholining kitoblarga boʻlgan qiziqishini oshirish, kitob oʻqish darajasini koʻtarish hamda mutolaa madaniyatini keng targʻib qilish boʻyicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bobokalonlarimiz ham kitob bolalarni tarbiyalashda katta oʻrin tutishini, insonning maʼnaviy olamini boyituvchi, ijodiy vosita sifatida qadrlash va undan samarali foydalanish zarurligini taʼkidlaganlar. Mutaxassislar bola hayotining ilk davrini “moʻjizalar davri” deb atashadi. Aynan shu davrda bolalar kitob oʻqishga tayyorlanadi. Avvalo, ular mukammal gapirish, tinglash va gapirish koʻnikmalarini oʻrganishlari kerak. Agar bolalarning kitobga qiziqishini shakllantirish jarayonini oiladan boshlab, maktabgacha taʼlim muassasasi va maktab taʼlimlari bilan hamkorlikda davom ettirilsa, kutilgan natija samarali boʻladi. Taʼlimning barcha mezonlari oilada shakllanganidek, mutolaa madaniyati ham aynan shu joydan boshlansa, yaxshi natijalar beradi.

Bolalarga yoshligidan boshlab o'zbek xalq ertaklarini aytib berish mehnatsevarlik, samimiylik, mehmondo'stlik kabi insoniy fazilatlarini, shuningdek, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat va ehtirom kabi tushunchalarni singdiradi. Alisher Navoiy, Farobiy, Abdulla Avloniy, Niyoziy, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy kabi ulug' mutafakkirlarimizning ta'limiy g'oyalari bolalar tarbiyasida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Mutolaani zaruriyatga aylantirish lozim. Agar bolalarda kitoblarga bo'lgan ishtiyoq bo'lmasa, ularning e'tiborini mutolaaga jalb qilish qiyin bo'ladi. Ularni majburlab kitob o'qitish shart emas, aksincha, kitob o'qishga qiziqish uyg'otish kerak. Bu borada ota-onalar, o'qituvchilar, murabbiylar va kutubxonachilarning yordami juda zarur. Bolalarning yoshiga va qiziqishlariga e'tibor qaratish lozim.

Italiyalik yozuvchi Seneka shunday degan: "Kitoblarning soni emas, balki sifatining foydasi bor." O'quvchilarni mustaqil kitob o'qishga qiziqtirish uchun "She'rgulshani", "Kitob – mening do'stim", "Kitob mo'jizaga chaqiradi", "G'olib kitobxon", "Sinfning eng yaxshi kitobxoni" kabi tanlovlarni tashkil qilish, shuningdek, turli mavzularda bahslar o'tkazish tavsiya etiladi.

Alisher Navoiy ilm va ma'rifatni yuksak qadrlagan va kitobni inson kamoloti uchun zarur bo'lgan asosiy manba sifatida ko'rsatgan. Uning nazarida, ilm va adab insonni yetuklikka yetaklovchi omillar bo'lib, kitoblar bu yo'ldagi eng yaxshi do'stdir. "Ilmsiz odam ko'rdir, ilm kitobdadir".

Sharq allomalarimizning fikrlaridan kelib chiqib, kitob faqat bilim olish vositasi emas, balki insonning ma'naviy va axloqiy shakllanishida muhim manba ekanini ko'ramiz. Bugungi kunda ularning g'oyalari asosida yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish, ilm olishga bo'lgan qiziqishini oshirish va kitobni insonning ajralmas hayotiy yo'ldoshi sifatida qadrlash zarur.

Bundan tashqari, kitob o'qish orqali o'quvchilarning kompetensiyaviy ko'nikmalari ham shakllanadi. Kompetensiya – fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, ko'nikmalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, qo'llay olishdir. Boshlang'ich ta'limda kompetensiya – o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

Boshlang'ich ta'limda kitobxonlik madaniyati orqali o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish): o'quvchilar har qanday mavzu doirasida o'qituvchining nutqini va sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarini va topshiriqlarini bimalol tinglab tushunadi va tahlil qila oladi; ko'rgan rasmlari va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan o'qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi;

- lingvistik kompetensiya: o'zbek tilidagi barcha nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila oladi; so'zlarni talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda bo'g'inlab ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi;

- morfologik kompetensiya: o'quvchilarda so'z turkumlari orqali shakllanadigan, ularning ma'no xususiyatlari, imlosi, gapdagi vazifasiga oid ko'nikma va malakalar yig'indisidir.

Kitobxonlik madaniyati orqali o'quvchilarda mantiqiy-ijodiy tafakkur rivojlanadi, kommunikativ savodxonligi oshadi, sharqona tarbiyasi shakllanadi hamda ma'naviy bilimi boyiydi.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning samarali yo'llari quyidagicha:

1. Bolalarni kitoblar bilan tanishtirish: O'quvchilarga turli xil kitoblar bilan tanishish imkonini berish kerak. Ular qiziqarli va rang-barang hikoyalar, she'rlar, rasmlar kitoblar orqali o'qishni o'rganishlari mumkin. Kitoblar bolalarning qiziqishlarini uyg'otadi va o'qishning mazmuni haqida fikr yuritishga yordam beradi.

2. Kitoblarning ahamiyatini tushuntirish: O'quvchilarga kitob o'qishning foydali tomonlarini tushuntirish zarur. O'qish nafaqat bilim beradi, balki so'z boyligini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, diqqatini rivojlantiradi. O'qish orqali bolalar o'zlarini ifoda etishni, fikrlarini to'g'ri va aniq bildirishni o'rganadilar.

3. Qiziqarli o'qish mashg'ulotlarini tashkil etish: O'quvchilarga o'qish jarayonini qiziqarli qilish uchun o'yinlar va mashg'ulotlar o'tkazish mumkin. Masalan: O'qish musobaqalari: O'quvchilarga qaysi biri tezroq va to'g'ri o'qishini aniqlash.

Kitobdan hikoya qilish: O'quvchilarga o'qigan kitoblaridan qisqacha hikoya qilib berish.

Badiiy rasm chizish: Kitobdagi personaj yoki hodisalar haqida rasm chizish.

4. Kitoblarni tanlashda bolalarning qiziqishlarini inobatga olish: Har bir bola turli xil kitoblarga qiziqadi. Ba'zilar hayvonlar haqida, boshqalari sarguzashtlar yoki fantastika haqidagi hikoyalarni yoqtirishi mumkin. O'quvchilarning qiziqishlarini bilish va ular uchun mos kitoblarni tanlash juda muhim.

5. O'qish uchun vaqt ajratish: O'quvchilarga har kuni o'qish uchun vaqt ajratish odatini o'rgatish kerak. Bu nafaqat ularning o'qish ko'nikmalarini oshiradi, balki ularni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini mustahkamlaydi. O'qish jarayoni davomida ular kitobni o'zlari sevib o'qishlariga yordam berish muhim.

6. O'qish jarayonini qo'llab-quvvatlash: Kitob o'qishning dastlabki bosqichlarida o'quvchilarga yordam berish, ularga o'qishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Masalan, ular so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni, matnni tushunishni o'rganishlari mumkin. O'qishdagi muvaffaqiyatlaridan keyin ularni rag'batlantirish, o'qishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi.

7. O'qigan kitoblar haqida bahs-munozaralar qilish: O'quvchilar o'qigan kitoblarining mazmunini muhokama qilish orqali kitobni yanada yaxshiroq tushunishga

yordam beradi. Bu metod nafaqat fikrlarni ifoda etishni, balki kitobni tahlil qilish va yodda saqlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

8. Ota-onalarni jalb qilish: Kitobxonlikni rivojlantirishda ota-onalarning roli ham muhim. Ota-onalar bolalariga kitob o‘qib berishlari yoki o‘qish odatini mustahkamlash uchun uyda o‘qish uchun vaqt ajratishlari kerak. Bu ularning kitobga bo‘lgan muhabbatini yanada kuchaytiradi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kitobxonlikni o‘rgatish – ularning bilim olish jarayonining muhim qismi. Bu yoshda kitoblar o‘qish vaqti kelsa ham, bolalarga dunyoni yaxshiroq tushunishga yordam beradi, o‘zlarini ifoda etish va fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zero, Ushinskiyning aytishicha, “Bolalarning nutqni egallashlari ularning hayotga tayyor ekanliklarini ko‘rsatuvchi eng ishonchli dalildir”. Yangi tizim asosida ijtimoiy, ma‘naviy va ta‘limiy ishlarni tashkil qilish bo‘yicha beshta muhim tashabbusning to‘rtinchi bandi yoshlar ma‘naviyatini oshirish va kitobxonlikni keng targ‘ib qilishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil qilishni nazarda tutadi. Ushbu hujjatda davlatimiz rahbari yoshlarni bolalikdan kitobga muhabbat uyg‘otish, mustaqil fikrlash va keng dunyoqarash shakllantirish zarurligini ta‘kidlab, bu ularning hayot tarziga mustahkam poydevor bo‘lishini qayd etdi. Chunki kitob o‘qish bugungi yoshlar siyosatining asosiy omillaridan biri bo‘lib, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli va samarali o‘tkazishga imkon beradi hamda ma‘naviy boyligini, axloqiy tarbiyasini va mehnatsevarlik tuyg‘ularini rivojlantiradi. Eng muhimi, bu ularga kelajakda to‘g‘ri yo‘lni tanlashga va ular orasidagi huquqbuzarliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh. M. Ta‘lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta‘limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta‘limning bakalavr yo‘nalishiga qabul bo‘yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqidan. – T., 2017.
2. Boltayeva B. “Boshlang‘ich sinflarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish” maqolasidan. – T., 2022.
3. Ikromova M.V. “Boshlang‘ich sinflarda kompetensiya tushunchasining mohiyati” maqolasidan. – T., 2023.
4. Muslimov N. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2016.
5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent.: Iqtisod-moliya, 2011. B. 418.